UDK:811.512.133`367 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol28_iss3/a79**

MAVHUM OTLAR VA ULARNING O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI TADQIQI XUSUSIDA

РЕФЕРАТНЫЕ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫЕ И ИХ ИЗУЧЕНИЕ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗЫНИИ

ABSTRACT NOUNS AND THEIR STUDY IN UZBEK LINGUISTICS

Iskandarova Sharifa Madaliyevna[1], Sotvoldiyeva Sadoqat Azizjon qizi[2]

[1]**Iskandarova Sharifa Madaliyevna** – filologiya fanlari doktori, Farg‘ona davlat universiteti professori

[2]**Sotvoldiyeva Sadoqat Azizjon qizi** Farg‘ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya.

Ushbu maqolada abstraktsiya tushunchasi va uning insoniyat tafakkuri bilan bog‘liqligi yoritiladi. Abstraktsiya tushunchasini izohlashda miflarga, folklor namunalariga, diniy matnlarga murojaat qilinadi. Maqolada mavhum va aniq otlarning grammatik xususiyatlari izohlanadi. O‘zbek tili grammatikasining shakllanish tarixi va mazkur sohada olib borilgan tadqiqotlar haqida bahs yuritiladi.. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto” , xalq og‘zaki ijodi namunalari va Alisher Navoiy ijodida uchraydigan mavhum otlarga murojaat etiladi. Denotativ va signifikativ ma’nolar izohlanadi. Abstrakt otlarni o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi va mazkur sohada olib borilgan tadqiqotlar kabi masalalar xususida so‘z yuritiladi.

Аннотация.

В этой статье рассматривается понятие абстракции и ее отношение к человеческому мышлению. При объяснении понятия абстракции делается ссылка на мифы, образцы фольклора и религиозные тексты. В статье разъясняются грамматические особенности абстрактных и конкретных существительных. Будут обсуждены история грамматики узбекского языка и исследования, проводимые в этой области, Авеста, священная книга зороастризма, примеры народного устного творчества, отвлеченные существительные, встречающиеся в творчестве Алишера Навои. Объясняются денотативные и знаменательные значения. Обсуждаются такие вопросы, как организация абстрактных существительных в узбекском языкознании и исследования, проводимые в этой области.

Abstract

This article covers the concept of abstraction and its relation to human thinking. When explaining the concept of abstraction, reference is made to myths, examples of folklore, and religious texts. The article explains the grammatical features of abstract and concrete nouns. The history of Uzbek language grammar and the research conducted in this field will be discussed. Avesta, the holy book of Zoroastrian religion, examples of folk oral creativity and abstract nouns found in Alisher Navoi's work will be discussed. Denotative and significant meanings are explained. The organization of abstract nouns in Uzbek linguistics and the research conducted in this field are discussed.

Kalit so‘zlar: *folklor, morfologiya, ot so‘z turkumi, mavhum otlar, denotativ ma’no, signifikativ ma’no, denotat*

Ключевые слова: *фольклор, морфология, существительные, абстрактные существительные, денотативное значение, знаменательное значение, денотат.*

Key words: *folklore, morphology, nouns, abstract nouns, denotative meaning, significant meaning, denotation.*

KIRISH

XX asrning boshlariga kelib, o‘zbek tilshunosligi tarixida morfologiya bo‘limini tadqiq etish va mazkur yo‘nalishda tadqiqotlar olib borishga e’tibor kuchaydi. Ma’lumki, o‘zbek tilshunosligining shakllanishida A.Fitratning xizmatlarini alohida ta’kidlash zarur. Fitrat o‘zining “Sarf” va “Nahv” asarlari bilan o‘zbek tili grammatikasini nazariy jihatdan asoslashga harakat qildi. Keyinchalik, M.Shamsiyev, Sherbek, H.Qayumiy va S.Dolimovlar tomonidan o‘zbek tili grammatikasiga bag‘ishlangan bir qancha asarlar maydonga keldi. O‘zbek tilshunosligiga morfologiya va grammatika atamalarining olib kirilishi O.Usmonov va B.Azizov [1] nomlari bilan bog‘liq. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar A.G‘ulomovning ishlarida yanada yuqori pog‘onaga ko‘tarildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada ilmiy bilishning tarixiylik, analiz, sintez, mantiqiylik va obyektivlik kabi usullaridan foydalanildi. Dunyo ilm-fani tamaddunida salmoqli o‘ringa ega bo‘lgan ajdodlarimiz asarlarida ham mavhum otlar haqidagi qarashlariga guvoh bo‘lamiz. Abstrakt nomlar insoniyat tafakkuri bilan aloqador bo‘lib, avvolo, diniy qarashlar bilan chambarchas bog‘liqligini kuzatishimiz mumkin. Insoniyat paydo bo‘lgandan boshlab, hozirgi kunga qadar abstrakt tushunchalarni

izohlash falsafa, dinshunoslik, tilshunoslik hamda adabiyotshunoslik kabi sohalarning asosiy o‘rganish obyektlaridan biri bo‘lib kelmoqda.

NATIJALAR

Ma’lumki, Abdurauf Fitrat o‘z asarlarida so‘z turkumlari, xususan, ot so‘z turkumi va uning grammatik ma’nosi haqidagi qarashlarini bayon etadi. Uning ta’rifiga ko‘ra, “…bildirgan ma’noga ot bo‘lib taqalg‘on so‘z ot” deyiladi. Otlarning hammasi borliqdagi“ ko‘zga ko‘ringan narsa”ni ifodalashi shart emas. Es, qayg‘u, zulm kabi “ ma’nosi ko‘zga ko‘rinmas otlarning ma’no jihatidan aniq va mavhum turlarga ajralishi haqida aytib o‘tadi [2].

Mavhum otlar insonning tafakkur tarzi bilan bog‘liq ekan, bu bevosita insoniyatning paydo bo‘lishi va undagi mifologik va diniy dunyoqarashning shakllanishi bilan aloqadorligini ta’kidlash zarur. Ma’lumki, xalq badiiy tafakkurining eng qadimgi namunalari miflar bo‘lib, ular keyinchalik yagona xalq bo‘lib shakllangan har bir urug‘ yoki etnos og‘zaki ijodida paydo bo‘lgan va hozirda ham mavjud. Turkiy xalqlar miflarining eng qadimgi namunalari zardushtiylarning muqaddas kitobi sanalgan “Avesto” orqali yetib kelgan bo‘lsa, ma’lum qismi xalq og‘zaki ijodiyotining turli janrlari tarkibida saqlanib qolgan hamda ularda ibtidoiy inson tafakkurining turli qirralari namoyon bo‘ladi. Xususan, “Avesto” da tasvirlangan xudolar, pahlavonlar haqidagi afsonalar o‘zbek xalq og‘zaki ijodida mavjud bo‘lgan “Odami Od”, “Er Xubbi” afsonalariga syujet jihatidan o‘xshashligi yuqoridagi mulohazalarga dalil sifatida xizmat qiladi.

MUHOKAMA

Mavhum otlarning falsafasi va badiiyati tasavvuf ta’limoti namoyondalarining asarlarida ham keng talqin qilingan. Tasavvuf adabiyotida mavhum ma’noli tushunchalarni konkret so‘zlar — timsollar orqali berish an’anaga aylangan. Mazkur hodisa ushbu ta’limotning yirik vakillarida biri — Alisher Navoiy ijodida ham ko‘zga tashlanadi. Navoiy ijodida abstrakt so‘zlarning turli ma’nolarda qo‘llanganligi, mavhumlik darajasi g‘oyatda baland bo‘lgan ishq, muhabbat, pahlavonlik, go‘zallik, sarxushlik kabi leksemalar ma’nosining aniq dalillar asosida ochib berilganligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, Toshkent davlat sharqshunoslik institutida fundamental tadqiqotlar grand loyihasi asosida “Xamsa”ning uchinchi dostoni “Layli va Majnun” ning konkordansi tuzilganligi hamda mazkur doston leksikografiyasi ko‘zdan kechirilganda “dard-u g‘am” leksik-semantik guruhi katta qismni tashkil etishi ma’lum bo‘ldi. Doston tarkibidagi mavjud 9994 so‘z shaklidan 574tasini ta’kidlangan tematik guruhga doir material tashkil qiladi. Mazkur ko‘rsatkich “Layli va Majnun” dostonining qayg‘uli asarligidan nishona bo‘lsa, boshqa tomondan shoir so‘z boyligining nechog‘lik boyligidan darak beradi [3].

Ma’lumki, aniq predmetlarni yoki predmet sifatida tasavvur qilinadigan tushunchalarni ifodalaydigan otlar ma’nosiga ko‘ra, atoqli va turdosh otlarga bo‘linadi**.** Biror shaxs, narsa yoki joyga atab qo‘yilgan nomlar atoqli otlar sanalsa, bir turdagi shaxs, narsa, o‘rin-joy, faoliyat-jarayon nomlarini bildiruvchi otlar turdosh otlar hisoblanadi. Turdosh otlar qanday tushunchani ifodalashiga ko‘ra 2 xil bo‘ladi: 1) aniq otlar; 2) turdosh otlar. Sezgi a’zolarimiz orqali bilishimiz mumkin bo‘lgan tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiladigan otlar aniq otlar deyiladi. Sezgi a’zolarimiz orqali bilishimiz mumkin bo‘lmagan, tafakkur va tasavvur orqali idrok qilinadigan tushunchalarni bildirgan otlar mavhum otlar deyiladi.

O‘zbek tilshunosligida mavhum otlar tadqiqiga bag‘ishlangan izlanishlar talaygina. Mazkur tadqiqotlarda, mavhum otlar haqida fikr yuritilganda, so‘zning leksik ma’nosiga e’tibor qaratish zarurligi ta’kidlanadi. Xususan, tilshunos olim Azim Hojiyev o‘zining “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” da mavhum otga quyidagicha ta’rif beradi. “Mavhum ot — mavhum tushunchani ifodalovchi ot; yoshlik, sevgi, qayg‘u, uyqu va boshqalar” [4].

M.Hakimovaning nomzodlik dissertatsiyasida abstrakt nomlar haqida fikr yuritadi hamda mavhum hamda aniq otlarni, konkret va abstrakt nomlar deb nomlashni ma’qullaydi. Abstrakt otlar ma’nosini izohlashda denotativ va signifikativ ma’nolarga e’tibor qaratadi [5].

Signifikativ ma’no yoki “sof lisoniy” ma’no obyektiv voqelikning maxsus lisoniy ini’kosi, leksik birlikning asosiy semantik mundarijasidir. Bunday ma’no belgining (nomning) boshqa bir leksik birlikdan farqlash uchun tushunchadan muayyan belgilarning tanlab olinishi hisobiga yuzaga chiqadi. Mazkur ma’no, ko‘pincha, so‘z ma’nosi deb yuritiladi va lug‘atlarda izoh sifatida beriladi [6].

Denotativ ma’no leksik birlikning o‘zi nomlayotgan voqelikdagi narsa bilan munosabatini ko‘rsatadi. Denotativ ma’no aniq narsani, muayyan hodisani (denotatni) bildiradi va “bu so‘z nimani

ifodalaydi?”, degan savolga javob beradi. Ta’kidlash lozimki, denotativ ma’no va denotat ayni bir hodisa emas. Denotativ ma’no denotat asosida shakllansa-da, ular alohida mohiyatdir.

Shu asosda, tadqiqotchi mavhum otlarda denotativ ma’nodan ko‘ra signifikativ ma’no ustunligini ta’kidlaydi.

XULOSA

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, xalqimiz ko‘p asrlardan buyon abstrakt tushunchalarga murojaat qilib kelmoqda. Bunday tushunchalar insonlarning orzu-istaklari, o‘ylari, xulosalarini o‘zida aks ettirganligi bilan ahamiyatli. Tildagi mavhum tushunchalar va ular anglatgan o‘ziga xos ma’nolarni anglashga intilish va tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda, abstrakt nomlarni lingvistik aspektda o‘rganish mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar rivojlanishida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Горский Д.П. Восросы абстракции и образования понятий. М.: АН СССР, 1961.
2. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Тошкент: Ўзбпекистон, 2002.(History of Uzbek linguistics.)
3. Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изохли лугати. –Т., 1993. (Annotated dictionary of linguistic terms(
4. Ҳакимова М.К. Ўзбек тилида абстракт номлар семантикаси: Филол.фанл.докт.... автореф. Тошкент, 2019. (Semantics of abstract nouns in the Uzbek language: Filol.fanl.doct... autoref)
5. Калинина Л.В. Лексико-грамматические разряды имён существительных как пересекающиеся классы слов: Автореф.дисс. …. филол.наук. Киров, 2009.
6. Нурманов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси //Тошкент: Фан. – 2008.(Linguistic theory)
5. Қурбонова Б. Лексик сатҳда локаллик ва географик ландшафт номлари // Ўзбек тили ва адабиёти. 2007-йил, 1-сон (Names of locality and geographical landscape at the lexical level // Uzbek language and literature)
6. Ganieva D. Semantic Syncretism and Polyfunctionality
7. Ganieva S. A. Hypo-Hyperonymic Relationship Between parema and its Unts //Current Research Journal of Philological Sciences RESEARCH (2767-3758). – 2021. – Т. 2. – №. 06. – С. 84-87.
8. Искандарова, Ш. (1998). Лексикани мазмуний майдон асосида ўрганиш муаммолари. Т.: Фан. (Problems of learning vocabulary based on content field.)